



# Qo‘qon DPI

# ILMIY XABARLAR

ISSN: 3030-3958

№ 3/2025

# Qo‘qon DPI.

## Ilmiy xabarlar



# Кокандский ГПИ.

## Научный вестник

**№3/2025**

<p>УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99</p> <p><b>MUASSIS:</b> Qo‘qon davlat pedagogika instituti  Qo‘qon DPI. <b>ILMIY XABARLAR-NAUCHNYIY VESTNIK.</b> Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi.  O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan.  Jurnaldan maqola ko‘chirib bosinganda, manba ko‘rsatilishi shart.  <b>"Qo‘qon DPI.Ilmiy xabarlar"</b> ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31 - martdagি qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagи №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagи 5/7-tonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslikfan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.  Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Сайт: <a href="http://www.kspi.uz">www.kspi.uz</a> <a href="http://journal.kspi.uz">journal.kspi.uz</a> ISBN: 978-9943-7182-7-2 “CLASSIC” nashriyoti 2025</p>	<p><b>Bosh muharrir:</b> Qo‘qon davlat pedagogika instituti rektori D.Sh.Xodjayeva <b>Mas’ul muharrirlar:</b> Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor N.S.Jurayev Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor N.A.Kadirova <b>Mas’ul muharrir yordamchisi:</b> Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i D.O‘rinboyev <b>Nashr uchun mas’ul:</b> M.Z.Muydinov</p> <p><b>TABIY FANLAR</b> И.И.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) А.Ж.Хусанов-физика-математика фанларин номзоди, доцент (O‘ZB) O.A.Turdiboyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.No‘monov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB)</p> <p><b>FILOLOGIYA FANLAR</b> Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Islailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB)</p> <p><b>IJTIMOIY FANLAR</b> Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB)</p> <p><b>PEDAGOGIKA FANLAR</b> Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)</p>
--	---



**BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING MUSTAQIL FAOLIYATIDA HUQUQIY  
FANLARINING AHAMIYATI**

***Ikramov Farhod Aktamovich***

*CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Jahonning bir mamlakatida ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi bo‘lajak pedagooglarning mustaqil faoliyatida xuquqiy fanlarni o‘rganishning ahamiyati katta ekanligini ko‘rsatadi. Bo‘lajak pedagooglarning mustaqil faoliyati o‘quv auditoriyasidagi mashg‘ulotlarni to‘ldiradi va rivojlantiradi. Mustaqil ta’lim - olingan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, qo‘sishcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shaklidir.

Bo‘lajak pedagooglarning mustaqil faoliyatida huquqiy fanlarni bilish umumiyligi ilmiy bilimlarning bir qismini tashkil etadi. Huquqiy fanlar nafaqat huquqiy bilimlar tizimini, balki yuridik amaliyot sohasini ham anglatadi. Yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga erishishning yagona yo‘li – huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyani isloh qilish va rivojlantirishdir. Chunki huquqiy savodxonlik huquqiy madaniyat asosidir.

Aynan bilimlarni mustaqil egallash jarayonida shaxsning mustaqilligi shakllanadi, bu murakkab vazifalar va muammoli vaziyatlarni hal qilishda amalga oshiriladi va shaxsning ichki o‘zini o‘zi boshqarish tizimining mexanizmlarini rivojlantirish, shu jumladan bilish va aqliy faoliyat natijasi hisoblanadi. Mustaqillik o‘z oldiga vazifa qo‘yish, samarali mehnat qilish, yangi vaziyatlarda tashabbus ko‘rsatishda o‘z ifodasini topadi. Bilish jarayoni nuqtai nazaridan: diqqatni boshqarish, mustaqillik, mantiqiy dalillar va qaror qabul qilish uchun zarur faoliyat usullarini tanlashda o‘z aksini topadi, o‘z-o‘zini baholash obyektivligi “mustaqil bilish” tushunchasiga kiritiladi.

Bo‘lajak pedagooglarning mustaqil faoliyatida huquqiy fanlar bo‘yicha bilimlarni shakllantirishda ularning kitob bilan mustaqil ishlashi alohida ahamiyatga ega. Maqolada bo‘lajak pedagooglarning mustaqil faoliyatida huquqiy fanlarining ahamiyati yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** yuridik ta’lim, mustaqil faoliyat, xuquq, bilim, ko‘nikma, malaka, amaliyot, ijtimoiy hodisa.

**ЗНАЧЕНИЕ ЮРИДИЧЕСКОЙ НАУКИ В САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

**Аннотация:** тот факт, что социально-экономические моменты, происходящие в одной стране мира, неизбежно затрагивают и другие страны, свидетельствует о значении

изучения юридических наук в самостоятельной деятельности будущих педагогов. Самостоятельная деятельность будущих педагогов дополняет и развивает занятия в учебной аудитории. Самостоятельное обучение-форма обучения с целью закрепления полученных знаний, умений и навыков, самостоятельного изучения дополнительной информации или материала.

В самостоятельной деятельности будущих педагогов знание юридических наук составляет часть общенаучных знаний. Юридические науки представляют собой не только систему юридических знаний, но и область юридической практики. Единственным способом достижения высокого уровня правовой культуры является реформирование и развитие правового образования и правового воспитания. Потому что юридическая грамотность-основа правовой культуры.

Именно в процессе самостоятельного приобретения знаний формируется самостоятельность личности, которая реализуется при решении сложных задач и проблемных ситуаций и является результатом развития механизмов системы внутреннего саморегулирования личности, в том числе познавательной и умственной деятельности. Самостоятельность находит свое выражение в постановке задач, продуктивной работе, проявлении инициативы в новых ситуациях. С точки зрения познавательного процесса: внимание отражается на контроле, самостоятельности, выборе логических аргументов и способов деятельности, необходимых для принятия решений, объективность самооценки включается в понятие “самостоятельное познание”.

Особое значение в формировании знаний по правовым дисциплинам в самостоятельной деятельности будущих педагогов имеет их самостоятельная работа с книгой. В статье освещается значение юридической науки в самостоятельной деятельности будущих педагогов.

**Ключевые слова:** юридическое образование, самостоятельная деятельность, право, знания, умения, квалификация, практика, социальное явление.

## **THE IMPORTANCE OF LEGAL SCIENCES IN THE INDEPENDENT ACTIVITY OF FUTURE TEACHERS**

**Abstract:** Socioeconomic upheavals occurring in one country of the world inevitably affect other countries, also testifying to the great importance of studying legal disciplines in the independent work of future teachers. Independent work of future teachers complements and develops activities in the classroom. Independent learning is a form of learning aimed at consolidating the acquired knowledge, skills and qualifications, as well as independent study of additional information or material.

In the independent work of future teachers, knowledge of legal disciplines is part of general scientific knowledge. Legal sciences cover not only the system of legal knowledge, but also the sphere of legal practice. The only way to achieve a high level of legal culture is to reform and develop legal education and legal training. Because legal literacy is the basis of legal culture.

It is in the process of independent acquisition of knowledge that the independence of the individual is formed, which is realized in solving complex problems and problem situations and is the result of the development of mechanisms of the internal system of self-government of the individual, including cognition and intellectual activity. Independence is expressed in setting goals, effective work and showing initiative in new situations. From the point of view of the cognitive process: attention management, independence, logical reasoning, choice of methods of action necessary for decision-making are reflected in the concept of "independent knowledge", and the objectivity of self-assessment is included in the concept of "independent knowledge".

In the independent work of future teachers, their independent work with books is of particular importance in the formation of knowledge on legal subjects. The article emphasizes the importance of legal disciplines in the independent work of future teachers.

**Key words:** legal education, independent activity, law, knowledge, skills, abilities, qualifications, practice, social phenomenon.

## KIRISH

Globallashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keldi. Jumladan, globallashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko‘rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o‘tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro‘y beradi.

Jahoning bir mamlakatida ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o‘z ta’sirini o‘tkazishi bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatida xuquqiy fanlarni o‘rganishning ahamiyati katta ekanligini ko‘rsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan kunning 24 yilligi munosabati bilan 2016 yil 7 dekabr kuni tantanali tadbirda: “Inson manfaatlarini ta’minalash uchun esa avvalo odamlar bilan, xalq bilan muloqot qilish, ularning dardu tashvishlari, orzu-niyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish kerak”, deb ta’kidlaydilar. Bu ta’kid ehtiyoj masalasini o‘rganish har qanday ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda asosiy o‘rin egallashini anglatadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

2020 yil 29 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta’lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi [1]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq tizimidagi tub islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu islohotlarning asl mohiyati xalq farovonligini oshirish, jamiyatda ijtimoiyadolat va demokratiya tamoyillarining ustuvorligini ta’minalashga qaratilgan bo‘lib, ularning sur’ati va natijalari har birimizning bugungi kundagi shijoatimiz va harakatimizga bog‘liqdir.

Yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyati o‘quv auditoriyasidagi mashg‘ulotlarni to‘ldiradi va rivojlantiradi. Mustaqil ta’lim - olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni mustahkamlash, qo‘sishimcha ma’lumot yoki materialni mustaqil o‘rganish maqsadidagi o‘quv shaklidir [5].

Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatida xuquqiy fanlar hamda talaba tomonidan o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish o‘qituvchi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya yoki auditoriyadan tashqarida bajariladi.

Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyati masalalari Z.Nishanova [2], J.Tolipova [3] va N.Xalilov [4]larning mustaqil ta’lim shakllari haqidagi tadqiqotlarida ko‘rib chiqilgan.

O.Qo‘ysinov kasb ta’limi yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olayotgan bo‘lajak bakalavr-o‘qituvchilarda mustaqil bilim olishga qiziqish va qobiliyatni, pedagogik madaniyatni takomillashtirishga oid ilmiy ishlarida mustaqil bilim olish usullariga to‘xtalib o‘tgan [6].

## **NATIJALAR**

Mustaqil ta’lim o‘quv faoliyatining barcha bosqichlarida katta ahamiyatga ega. Ular qatoriga: bilish muammolarni yaratish; muammoli turdagи topshiriqlarni bajarish; olingan bilimlarni mustahkamlash; ilgari egallangan bilimlardan foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish va boshqalarni kiritish mumkin.

Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatida huquqiy fanlarni bilish umumiyligi ilmiy bilimlarning bir qismini tashkil etadi. Huquqiy fanlar nafaqat huquqiy bilimlar tizimini, balki yuridik amaliyot sohasini ham anglatadi.

Huquqiy fanlar bir qator asosiy xususiyatlarga ega:

- bu siyosatshunoslik, chunki u huquq, davlat va siyosat sohalariga taalluqli ijtimoiy hodisalarini o‘rganadi;
- bu ijtimoiy fan, chunki ijtimoiy hodisalarini o‘rganadi;
- bu ijtimoiy fan amaliy xarakterga ega, chunki huquqshunoslik huquqiy hodisalarini amaliy ehtiyojlar uchun o‘rganadi.

Avvalo, huquqiy fanlar predmeti davlat va huquqning faoliyat ko‘rsatish qonuniyatları, ularning kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatları, muhim belgilari, shuningdek, huquq materiyasining o‘zi – dogmadir. Huquqiy dogma deganda huquqiy nazariya va amaliyot asos bo‘lgan, o‘rnatilgan va umume’tirof etilgan qoidalar tushuniladi. Huquqiy fanlar, shuningdek, huquqiy ishlarni yuritish, qonunlar va boshqa normativ hujjatlarni yaratish, huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish qoidalari va usullarini ifodalovchi yuridik texnikani ham o‘z ichiga oladi.

Har bir insonning kundalik hayotida tez-tez uchraydigan savollar tug‘iladi, ya’ni ishdagi ro‘y beradigan har xil vaziyat (sharoitlar)da unga qanday to‘g‘ri yondoshish, yoki jamoat joylarida, uyda va hokazo hollarda. Umuman qisqacha aytganda, davlat jamiyat va boshqa kishilarning manfaatlaridan kelib chiqqan holda o‘zingni qanday tutish zarur, degan savol tug‘iladi.

Bu savollarga javobni ko‘pchilik hollarda kishilarning bir necha avlodlari tajribalaridan kelib chiqib, jamiyatda o‘z shaklini topgan (yoki shakllangan) ijtimoiy (sotsial) normalardan izlash mumkin.

Lekin shuni ta’kidlash kerakki, sotsial (ijtimoiy) normalar tizimi normativ tartibga solish tizimining faqat ma’lum qismi sifatida yuzaga chiqadi. Sababi jamiyatda ikki xil normalar (huquqiy qoidalar) harakat qiladi, bularga:

- a) sotsial (ijtimoiy) texnik;
- b) ijtimoiy (sotsial) shaxsiy normalar kiradi.

Jumladan, normalar inson hulqining ijtimoiy munosabatlar doirasi tabiat, texnika bilan munosabatlarini tartibga solishda qo‘llaniladi.

Yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga erishishning yagona yo‘li – huquqiy ta’lim va huquqiy tarbiyani isloh qilish va rivojlantirishdir. Chunki huquqiy savodxonlik huquqiy madaniyat asosidir. “Huquqiy madaniyat – fuqarolarning yetukliligi va ongliligini ko‘rsatuvchi mezon. Huquqiy madaniyat tushunchasi huquqning rivojlanish darjasи, aholining huquq haqidagi tushunchasi, qonunlarning ahvoli, huquqni amalga oshirish ishlarini tashkil etish darjasи, huquqning obro‘yi singari elementlardan tashkil topadi... Shaxs qanchalik huquqiy bilimga ega bo‘lmasin, qonun va boshqa qoidalarga amal qilmasa, u jamiyat uchun katta zarar bo‘lib, bu huquqiy madaniyatsizlikni keltirib chiqaradi. Demak, huquqiy madaniyatga shaxsning o‘z huquq, erkinliklarini anglaganligini ko‘rsatuvchi mezon sifatida qarashimiz mumkin... Huquqiy madaniyat insonning huquq, jamiyat va davlatga bo‘lgan munosabatining alohida shaxs, uning huquq va manfaatlariga bo‘lgan munosabati bilan chambarchas bog‘liq, huquqiy madaniyat darjasи huquqiy tizimning rivojlanganlik darjasи, davlat va jamiyat institutlarining xalqchilligi, aholining bilim darjasи, huquqiy ong va jamiyatdagi huquqiy mafkura bilan uzviy aloqadorlikdadir”.

## MUHOKAMA

Aynan bilimlarni mustaqil egallash jarayonida shaxsning mustaqilligi shakllanadi, bu murakkab vazifalar va muammoli vaziyatlarni hal qilishda amalga oshiriladi va shaxsning ichki o‘zini o‘zi boshqarish tizimining mexanizmlarini rivojlantirish, shu jumladan bilish va aqliy faoliyat natijasi hisoblanadi. Aqliy mustaqillik shaxs mustaqilligining ajralmas qismi bo‘lib, u o‘z navbatida hayotiy faollikning shakllanishi va namoyon bo‘lishining asosini tashkil etadi, ular uchun zaruriy shart bo‘lib xizmat qiladi.

Yangi ijtimoiy sharoitlarda, axborot maydonining sezilarli darajada kengayishi, yangi manbalar va axborot tashuvchilarning paydo bo‘lishi bilim olish shartlari shunga mos ravishda o‘zgardi, mustaqil ta’lim metodikasi va didaktikasi sezilarli darajada rivojlandi, shuningdek mustaqil ta’lim jarayonining tashkiliy-pedagogik shartlarini ham o‘zgartirish kerak bo‘lib qoldi. Aytish mumkinki, kerakli bilimlar miqdorini o‘zlashtirishga shaxsning o‘z faolligi, bilim olishga intilishi, o‘z faoliyatiga ijodiy munosabati orqali erishish mumkin.

“Mustaqillik” va “bilish faoliyati” tushunchalari bir xil tartibdagи hodisalardir. Mustaqillikni shaxsning o‘zligi, qobiliyati, insonning faoliyat ko‘rsatkichi sifatida qarash

mumkin. Mustaqillik - bu tashqaridagilarning ishtiroki va yordamisiz, tashqi undashlarsiz faoliyatni amalga oshirishdir. Mustaqillik o‘z oldiga vazifa qo‘yish, samarali mehnat qilish, yangi vaziyatlarda tashabbus ko‘rsatishda o‘z ifodasini topadi. Bilish jarayoni nuqtai nazaridan: diqqatni boshqarish, mustaqillik, mantiqiy dalillar va qaror qabul qilish uchun zarur faoliyat usullarini tanlashda o‘z aksini topadi, o‘z-o‘zini baholash obyektivligi “mustaqil bilish” tushunchasiga kiritiladi. O‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish mustaqil ish jarayonida yuz beradi, u amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi, egallangan bilimlarni o‘zlashtirilishiga yordam beradi.

Huquqiy fanlar qonun va qonuniyatlar bilan bir qatorda isbot talab qilmaydigan o‘zgarmas haqiqatlarni, ya’ni huquqiy tamoyillar va aksiomalarini o‘rganadi. Qadim zamonlardan beri ko‘plab tamoyillar va aksiomalar shakllantirilgan, ammo adolatning eng oddiy elementar universal insoniy talablari tufayli bizning davrimizda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Huquqiy fanlarga odatda yuridik ta’limotlar tarixi sifatida qaraladi. U o‘z predmeti bo‘yicha yangi obyektiv bilimlar olish, bu bilimlarni tizimlashtirish, o‘zi ochgan qonuniyatlar asosida turli davlat-huquqiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash, tushuntirish va bashorat qilishni maqsad qilib qo‘yadi.

Huquqiy fanlarning zamonaviy metodologiyasida ko‘plab huquqshunos olimlar inqiroz hodisalarini qayd etadilar. Ko‘pincha tavsiflovchi xarakterga ega bo‘lgan va hech qanday ilmiy ahamiyatga ega bo‘lmagan huquqiy hujjatlarni sharhlash bilan chegaralangan tadqiqotlarga duch kelinadi.

Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatida huquqiy fanlar bo‘yicha bilimlarni shakllantirishda ularning kitob bilan mustaqil ishlashi alohida ahamiyatga ega. Huquqiy fanlarga kelsak, bular darslik, o‘quv qo‘llanma, qo‘sishimcha adabiyotlar, ma’lumotnomalar, texnik hujjatlar, maxsus jurnallar, organlar va xizmatlarining ilmiy-texnik axborot nashrlari, ilmiy-ommabop adabiyotlar hisoblanadi. Kitob bilan ishslash qobiliyatini har qanday shakllantirilishi kerak bo‘lgan qobiliyatlar bilan birga shakllantirish kerak. Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatida huquqiy adabiyotlar va hujjatlar (qo‘llanmalar, jadvallar, diagrammalar, texnik talablar, standartlar va boshqalar)dan ma’lumotlarni mustaqil ravishda izlash va qo‘llay olish uchun bibliografik ko‘nikmalarini shakllantirish kerak.

Natijada, aytish mumkinki, ko‘rib chiqilgan metodikalar inkor etib bo‘lmaydigan tarzda birlashtirilgan va tizimlashtirilgan afzalliklarga ega. Bo‘lajak pedagoglarning mustaqil faoliyatida huquqiy fanlarni o‘rganishda darslik bilan mustaqil ishlash talabani subyekt sifatida faoliyat tizimiga kiritadi, dastlab uning ongli va maqsadli faoliyat yuritish qobiliyatini nazarda tutadi, bajarilgan harakatlarning miqdori va sifatiga mos natijalarini olish (ko‘nikma, bilim, malaka, shaxsiy xususiyatlar) imkonini beradi. Darslik shunday ta’lim vositasi bo‘lib, uning yordamida talabalar mustaqil ravishda bilim, kasbiy mahorat asoslarini egallaydilar, o‘zlaridagi ijodiy qobiliyatlarni rivojlantiradilar, izlanish va tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanadilar.

## **XULOSA**

Mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarning samarali bo‘lishini ta’minlash, ishlab-chiqarishda va ijtimoiy hayotning barcha bo‘g‘inlarida inson omilidan foydalanish, har bir ijtimoiy shaxs imkoniyatlarini to‘la-to‘kis yuzaga chiqarish masalasi bevosita huquqiy bilimlarni ta’lim tarbiya jarayoniga keng tadbiq etish vazifalarni amalga oshirish ulkan ahamiyatga egadir Shu boisdan hozirgi kunda barcha rivojlangan va rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqarolarining ma’naviy va intellektual, jismoniy va ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e’tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy bilimlarni amaliyotga tadbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, Ўзбекистон Республикасида юридик таълим ва фанни тубдан такомиллаштириш бўйича кўшимча чора-тадбирлар тўғрисида. 29.04.2020 йил. ПФ-5987-сон.
2. Нишонова З. Мустақил фикр ривожланганлигининг психологик мезонлари // Халқ таълими. - Тошкент, 2001.- №1.- Б. 38 – 40.
3. Толипова Ж. Талабаларнинг мустақил таълимини ташкил этиш // Халқ таълими. – Тошкент, 2002. – № 4. – Б. 102 – 103 .
4. Халилов Н. Мустақил таълим шакллари // Халқ таълими. – Тошкент, 2002.- № 5.- Б. 88 – 89.
5. Xасанбоев Ж., Тўрақулов X. ва бошқалар. Педагогика фанидан изохли луғат. - Т.: «Фан ва технологиялар», 2009. -355-б.
6. Қўйсинов О.А. Мустақил таълим олиш жараёнида талабаларнинг ижодий тафакурларини шакллантириш. / Таълим жараёнида мустақил тафакур ривожланиши: Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2005. - Б. 98 - 99.

<b>BOLALAR AUTIZMI: O‘RGANISH TARIXI, KLINIK BELGILARI, PSIXOLOGIK TUZILISHI</b>	<b>Tuxtayeva Maxfirat</b>	<b>399</b>
<b>ENHANCING STUDENT ENGAGEMENT THROUGH INTERACTIVE LEARNING</b>	<b>Umarova Munira Baxodirovna, Usmonova Roziya Maxamadjanovna</b>	<b>404</b>
<b>AKADEMIK LITSEYLARDA MATEMATIK ANALIZ ASOSLARI BO‘LIMINI O‘QITISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH</b>	<b>Usmonova Shirinoy To’lqinjon qizi</b>	<b>410</b>
<b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY JIHATDAN TARBIYALASH VAZIFALARI</b>	<b>Xakimova Marxabo O‘raqovna, Nabijonova Dilovar</b>	<b>415</b>
<b>SOTSIOLOGIK TA’LIMDA BO‘LAJAK SOTSIOLOGLARNING IJTIMOIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TUZILMASI</b>	<b>Yulbarsova Xurshida Abdullajonovna</b>	<b>420</b>
<b>INKLYUZIV TA’LIM TARBIYALANUVCHILARIDA KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI GEMIFIKATSİYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI</b>	<b>Zaripova Shaxnoza Shaxobiddinovna</b>	
<b>ВЛИЯНИЕ СЛОВ И МЫСЛЕЙ НА ОРГАНИЗМ ЧЕЛОВЕКА</b>	<b>Ганиев Маруфжон Мухаммаджонович</b>	<b>436</b>
<b>BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING MUSTAQIL FAOLIYATIDA HUQUQIY FANLARINING AHAMIYATI</b>	<b>Ikramov Farhod Aktamovich</b>	<b>440</b>
<b>ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ПРИЁМОВ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ</b>	<b>Кузиева Диёра Умарбек кизи</b>	<b>447</b>
<b>BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING ANTIKORRUPSION KOMPETENTLIGINI “HALOLLIK VAKSINASI” ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI</b>	<b>Isroilov G‘olib Rashidovich</b>	<b>458</b>
<b>OLIY TA’LIM TALABARINING RAQAMLI MADANIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI</b>	<b>Jum’azoda Malika Baxtiyorovna</b>	<b>463</b>
<b>PEDAGOGIK OLIY TA’LIM MUASSALARIDA MASOFAVIY TA’LIMNING INTERFAOL MULOQOT JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING AMALIY AHAMIYATI</b>	<b>Tuxtashova Rushana Sadullayevna</b>	<b>470</b>
<b>РЕШЕНИЕ АЛГЕБРАИЧЕСКИХ ЗАДАЧ ГЕОМЕТРИЧЕСКИМИ МЕТОДАМИ.</b>	<b>Каримова Наргиза Мамурхоновна</b>	<b>477</b>
<b>TALABALAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING AHAMIYATI</b>	<b>Abdullaeva Sanobar Berdievna, Xujakulov Shaxriyor Shokir o‘g‘li</b>	<b>484</b>
<b>РОЛЬ СЕМЬИ В ПРОЦЕССЕ ЛОГОПЕДИЧЕСКОЙ КОРРЕКЦИИ РЕЧЕВЫХ НАРУШЕНИЙ</b>	<b>Шорахимова Лайло</b>	<b>490</b>
<b>PEDAGOGICAL POSSIBILITIES FOR IMPROVING STUDENTS’ PRACTICAL COMPETENCIES BASED ON ECONOMIC TERMS</b>	<b>Barno Djamatutdinova Ramizitdinovna</b>	<b>498</b>